

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATLARNI INTIZOMIY JAVOBGARLIKKA TORTISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Saddam QODIRALIYEV

katta o‘qituvchi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

s.godiraliyev@tsul.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida advokatlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo‘llash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi, mazkur sohadagi vakolatli organlar, sud va adliya organlarining ishtiroki, vakolatlari, ularning o‘ziga xos tomonlari yoritiladi. Advokatlarning intizomiy javobgarligi masalasiga oid xorijiy davlatlar tajribasi, advokatura institutini tashkil etish va faoliyat yuritishining asosiy prinsiplari va ularning intizomiy javobgarlikka tortish jarayonlariga muvofiqligi muhokama qilinadi.

Tayanch so‘zlar: intizomiy javobgarlik, vakolat, intizomiy ish, advokat qasamyodi, malaka komissiyalari, ogohlantirish, litsenziya, adliya organi, ma‘muriy sud, advokatlik faoliyati prinsiplari, mehnat qonunchiligi, advokatlik tuzilmalari, xulosa.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОРЯДКА ПРИВЛЕЧЕНИЯ АДВОКАТОВ К ДИСЦИПЛИНАРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Саддам ҚОДИРАЛИЕВ

Старший преподаватель

Ташкентский государственный юридический университет

Ташкент, Узбекистан

s.godiraliyev@tsul.uz

Аннотация

В данной статье рассматривается законодательная база, регулирующая применение мер дисциплинарной ответственности в отношении адвокатов в Республике Узбекистан, участие и полномочия уполномоченных органов в этой области, судов и органов юстиции, их особенности, опыт зарубежных стран в вопросах дисциплинарной ответственности адвокатов, основные принципы организации и деятельности института адвокатуры и их соответствие процедурам привлечения к дисциплинарной ответственности.

Ключевые слова: дисциплинарная ответственность, полномочия, дисциплинарное дело, присяга адвоката, квалификационные комиссии, предупреждение, лицензия, орган юстиции, административный суд, принципы адвокатской деятельности, трудовое законодательство, адвокатские формирования, заключение.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi advokatura instituti faoliyatiga oid konstitutsiyaviy normalarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra, advokatura jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun faoliyat yuritishi, qonuniylik, mustaqillik hamda o‘zini o‘zi boshqarish advokatura faoliyatining asosiy prinsiplari ekanligi, advokat o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirayotganda unga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, advokatning o‘z himoyasi ostidagi shaxsga malakali yuridik yordam berishiga shart-sharoitlar yaratilishi, shuningdek advokatning kasbiy faoliyati davlat va qonun himoyasida bo‘lishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Ko‘plab sohalar singari advokaturada ham ushbu maqom berilgan shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasi tartibga solingan. O‘zbekiston Respublikasida advokatlarning intizomiy javobgarligi masalalari, avvalo O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasida advokatlarning intizomiy javobgarlik masalalarini tartibga soladigan asosiy hujjat hisoblanar edi. 2009-yilning 14-mart sanasida qabul qilingan ushbu idoraviy hujjat joriy yilning 7-oktabr sanasiga qadar mazkur sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi belgilandi. Sababi, 2025-yilning 7-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining tegishli buyrug‘i asosida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizom qabul qilinib, 3 oydan so‘ng kuchga kirishi nazarda tutildi.

Yangi qabul qilingan nizomda muayyan yangiliklar mavjud bo‘lsa-da, ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasida advokatlarning intizomiy javobgarlikka tortish tartibiga o‘zgartirish kiritmaydi. Hujjatning asosiy yangiliklaridan biri “intizomiy

ish yuritish” atamasiga ta’rif berilganidir. Unga ko‘ra, “advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodining buzilishi O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan aniqlanganligi, advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar, sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimi bo‘yicha malaka komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan o‘rganish” [7] intizomiy ish yuritish hisoblanadi.

Milliy qonunchiligimizga asosan advokatlarning intizomiy javobgarligining ikki turi mavjud bo‘lib, ularning birinchisi va eng asosiysi O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 14-moddasida belgilangan advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi natijasida yuzaga keladigan intizomiy javobgarlik, ikkinchisi esa, advokatlik tuzilmasida advokatning mehnat qonunchiligi talablarini buzishi natijasida, advokatlik tuzilmasida belgilangan tartibqoidalardan kelib chiqib, intizomiy javobgarlikka tortilishi hisoblanadi.

Advokatning intizomiy javobgarligi – bu advokat tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida qonun hujjatlari, kasbiy etika qoidalari yoki advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy talablarni buzganligi uchun o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda intizomiy choralarni qo‘llash orqali uning huquq va majburiyatlariga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan advokatlik huquqiy institutidir.

Advokatning intizomiy javobgarlikka tortilishi masalasi jiddiy hisoblanaib, bunday holatlarning ko‘payishi advokatura institutiga nisbatan ishonchning pasayishiga, sohaning tashqi imidjiga putur yetishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli ham, advokatlarning intizomiy javobgarligini tartibga soluvchi qonunchilik, bu boradagi vakolatlarni aniq tartibga solish va belgilash dolzarb hisoblanadi.

Advokatlarning intizomiy javobgarligi masalasida turli davlat olimlari fikrlar bildirib o‘tgan. Jumladan, Y.S. Pilipenko fikricha, advokat faqatgina

mijozga nisbatan noto'g'ri yoki beparvolik bilan yondashganda emas, balki o'zining advokatlik faoliyatidan tashqaridagi noqonuniy yoki axloqiy jihatdan shubhali xatti-harakatlari uchun ham intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin [8]. Ushbu fikrlari orqali Pilipenko advokatning advokatlik faoliyatidan tashqari, odob-axloq normalariga zid xatti-harakatlar uchun ham javobgar ekanligini ko'rsatadi.

K.R. Aleshina nazariyasida advokatning intizomiy javobgarligi «mustaqil turdagi huquqiy va kasbiy javobgarlik» bo'lib, faqat advokatlik faoliyati kontekstida emas, balki kengroq kasbiy normalar asosida ham qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlaydi [9].

M. Sheverdin esa advokatlik etikasini buzgan advokatlar uchun intizomiy javobgarlik muhim me'yoriy mezon ekanligini, advokatlik etikasiga rioya qilmaslik – intizomiy javobgarlikka olib keladigan asosiy sabablar sirasiga kirishini qayd etadi [10].

Ma'lumki, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzurida malaka komissiyalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Amaldagi qonunchiligimizga asosan ushbu malaka komissiyalari malaka imtihonini qabul qilish, advokat qasamyodini qabul qilish, advokat maqomini to'xtatib turish va tiklash, advokatga malaka darajasi berish, murojaatlarni ko'rib chiqish hamda intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish uchun tuziladi. Davlatimizda faoliyat yuritayotgan olti ming atrofidagi advokatlarning qariyb yarmi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, ular poytaxtda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanadi. O'z-o'zidan, boshqa malaka komissiyalariga nisbatan ushbu hududda tashkil etilgan malaka komissiyasi ish yuklamasi bir necha barobar yuqori. Shu sababli, ayni paytda Toshkent shahrida ikki turdagi malaka komissiyalari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning biri faqatgina ushbu hududdagi advokatlarning intizomiy javobgarligi masalasi bilan shug'ullanuvchi komissiya hisoblanadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasi (advokatlar intizomiy javobgarlik masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha) tomonidan

2024-yil 6 oyida 20 marotaba malaka komissiya majlisi o'tkazilgan bo'lib, unda 306 nafar advokatga nisbatan intizomiy javobgarlik masalasi ko'rib chiqilgan. Natijada, advokatlarga nisbatan 125 ta intizomiy choralar qo'llanilgan (shundan 61 ta ogohlantirish, 20 ta litsenziyani amal qilishini to'xtatib turish, 44 ta litsenziyani amal qilishini tugatish). Toshkent shahar hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 34 ta qarori O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi tomonidan bekor qilingan.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, advokatning intizomiy javobgarligi masalasini hal etish jarayonida bir nechta organlar ishtirok etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, hududiy adliya organlari hamda ma'muriy sudlar. Jumladan, hududiy boshqarma yoki adliya organiga kelib tushgan advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar, sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimi malaka komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi [11].

Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha malaka komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

ogohlantirish to'g'risida;

litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish to'g'risida ma'muriy sudga murojaat qilish haqida;

litsenziyaning amal qilishini tugatish masalasini ko'rib chiqish to'g'risida Oliy malaka komissiyasiga murojaat qilish haqida;

qo'shimcha o'rganishni hududiy boshqarmaga yuklash haqida;

intizomiy jazo choralari qo'llashni rad etish va intizomiy ish yuritishni tugatish to'g'risida.

Malaka komissiyasining litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida ma'muriy sudga murojaat qilish haqidagi qarori, u qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay hududiy boshqarma tomonidan tegishli adliya organiga Tizim orqali yuboriladi. Adliya organi mazkur qaror kelib tushgan

kundan yetti kun ichida litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida tegishli ma'muriy sudga murojaat qiladi.

Malaka komissiyasining litsenziyaning amal qilishini tugatish masalasini ko'rib chiqish to'g'risida Oliy malaka komissiyasiga murojaat qilish haqidagi qarori, u qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay qaror bilan bog'liq barcha hujjatlar va materiallarni ilova qilgan holda Tizim orqali Oliy malaka komissiyasiga yuboriladi. Oliy malaka komissiyasining advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida malaka komissiyasining murojaati bo'yicha xulosasi u tuzilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yozma shaklda Adliya vazirligiga yetkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-sonli Farmonida litsenziyaning amal qilishini tugatish Oliy malaka komissiyasi xulosasiga asosan Adliya vazirligining murojaati bo'yicha faqat sud tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Adliya vazirligi mazkur xulosa kelib tushgan kundan yetti kun ichida litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida tegishli ma'muriy sudga murojaat qiladi [12].

Yuqorida O'zbekiston Respublikasida advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish jarayonidagi vakolatlar bayot etildi. Fikrimizcha, mazkur tartibni takomillashtirish asosida advokatlarning intizomiy javobgarligi masalasi samaradorligini oshirish zarur. Mazkur tartib bir nechta muammolarni yuzaga keltirib, xususan malaka komissiyalarida litsenziyani to'xtatib turish yoki tugatish masalasini mustaqil ravishda hal etish imkonining mavjud emasligi ular qarorlarining ta'sirchanligiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu esa, advokaturaning o'zini o'zi boshqarish konstitutsiyaviy prinsipiga zid kelmoqda, shuningdek intizomiy javobgarlikka tortishning amaldagi tartib-taomili ortiqcha kuch, vaqtning sarflanishiga, ovoragarchilik va byurokratiyaga olib kelmoqda. Bu esa, advokatga yetarli darajada va o'z vaqtida ta'sir ko'rsatish jarayonini kechiktirmoqda.

Hududiy malaka komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror Oliy malaka komissiyasi, so'ng Adliya vazirligida ko'rib chiqilib, ma'muriy sudga yuborilishi va ko'rib chiqilishi qariyb 2-3 oyni tashkil etadi. Bunda javobgarlikka tortish va malaka komissiyasi tomonidan belgilangan "jazo muddatlari" o'tib ketadi.

Mazkur masalada xorijiy davlatlar tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, Finlandiyaning "Advokatlar akti"ning 7-bo'limiga ko'ra, agar advokat advokatlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida insofsiz harakatlar sodir etsa yoki o'zga shaxsning manfaatlarini boshqacha tarzda qasddan buzsa, u advokatlik litsenziyasidan mahrum etilishi lozim. Intizomiy kengash advokatni litsenziyadan mahrum qilish to'g'risida qaror qabul qiladi [13].

Latviya Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni 6-bo'limiga asosan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi vakil amaldagi qonun talablarini, advokatlik faoliyatiga oid hujjatlarni, advokatning etika qoidalarini buzganligi uchun Intizomiy komissiya tomonidan javobgarlikka tortilishi mumkin [14]. Bunda mazkur jarayonning barchasi ushbu komissiya tomonidan hal etilib, yakunda advokat komissiya tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin.

Ozarbayjon Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, advokat Advokatlar intizomiy komissiyasining qarori asosida faqat Advokatlar hay'ati rayosati tomonidan intizomiy javobgarlikka tortiladi [15].

O'zbekiston Respublikasida advokatlarning intizomiy javobgarlikka tortish tartibini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, advokatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ogohlantirish, litsenziyani amal qilishini 6 oygacha to'xtatib turish hamda litsenziyaning amal qilishini tugatish jazo turlarini O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalarining vakolati sifatida belgilash;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalarining jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlari ustidan Oliy malaka komissiyasiga shikoyat qilish tartibini joriy etish;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalarining jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlari ustidan Oliy malaka komissiyasiga berilgan shikoyat to‘liq yoki qisman qanoatlantirilmagan taqdirda, mazkur qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish tartibini joriy etish zarur.

Yuqoridagi tartibning joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida belgilangan har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlab, advokaturaning o‘zini o‘zi boshqarish prinsipini samarali joriy etishga xizmat qilib, advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibini soddalashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). <https://lex.uz/uz/docs/20596>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-54503>
3. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risida NIZOM. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.09.2023-y., 10/23/1921-4/0709-son <https://lex.uz/docs/-1458647>
4. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risida NIZOM. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son. <https://lex.uz/docs/-1459048>
5. Пилипенко Ю.С. К вопросу о пределах дисциплинарной ответственности адвоката // Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2014. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-predelah-distiplinarnoy-otvetstvennosti-advokata>

6. Шевердин М. Дисциплинарная ответственность за нарушение правил адвокатской этики. III восточноукраинский юридический форум ассоциации юристов Украины. – Харьков, 2013.
7. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘i, 07.07.2025-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3637. <https://lex.uz/uz/docs/-7619714>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-predelah-distiplinarnoy-otvetstvennosti-advokata/viewer>
9. https://elibrary.ru/item.asp?id=36834349&utm_source
10. https://uba.ua/documents/doc/sheverdin.pdf?utm_source
11. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.07.2025-y., 10/25/3637/0595-son
12. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son
13. https://www.finlex.fi/fi/laki/kaannokset/1958/en19580496_20040697.pdf
14. <https://likumi.lv/ta/id/59283-latvijas-republikas-advokaturas-likums>
15. <https://www.eurasian-advocacy.ru/azerbajdzhanskaya-respublika/607-zakon-azerbajdzhanskoj-respubliki-ot-10-iyunya-2011-goda-145-ivqd>